


Germaniyaning "Linde" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Navoiyazot" AJda "Havoni taqsimlash uskunasini o'rnatish" loyihasi amalga oshiriladi

// 03 May 2023 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/linde-kompaniyasi-va-navoiyazot-aj-havoni-taqsimlash-uskunasini>



O'zbekiston-Germaniya forumi doirasida "Navoiyazot" AJ va "Linde" kompaniyasi o'rtasida majmuaning ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun "Navoiyazot" AJda "Havoni taqsimlash uskunasini o'rnatish" loyihasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma korxonani tashkil etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishuv imzolandi.

Mazkur loyihada "Linde" asosiy investor - asosiy aksiyador - 51% va loyihaning asosiy pudratchisi sifatida ishtirok etadi. Dastlabki hisob kitoblarga ko'ra loyiha qiymati 90 million AQSH dollarini tashkil etadi, u 800 ming m³ dan ortiq gazzimon kislorod va azot ishlab chiqarishni ko'zda tutadi. Loyihani 2026-yilning birinchi choragida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Loyihani amalga oshirish natijasida "Navoiyazot" AJ hududida 1964 va 1971-yillarda foydalanishga topshirilgan mavjud "Havoni taqsimlash uskunasini" o'rnini zamonaviy uskuna egallaydi va majmua yiliga 91

million kVt/soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "Linde" kompaniyasi sanoat va tibbiy gazlarni ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi yetakchi kompaniyalardan biri bo'lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritadi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati